

Amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi



O'zbekiston va Belarus rahbarlari muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdi.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi va hududlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev keyingi ikki yilda tovar ayirboshlash hajmi qariyb to'rt barobar oshganini, bu sur'atni saqlab, savdo aylanmasini yanada kengaytirish kerakligini ta'kidladi.



Buning uchun mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish, biznes-forum va ko'rgazmalarni muntazam tashkil etib, mavjud zaxiralarni imkon qadar ishga solish va o'zaro manfaatli hamkorlikning barcha yo'nalishlarini qamrab olish muhimligi qayd etildi.

- Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya savdo oqimlarini chuqur tahlil qilib, nimalar hisobidan tovar ayirboshlash hajmini jadal oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishi kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.



Aleksandr Lukashenko Belarus va O'zbekiston hamkorligi shunchaki do'stona munosabatlar bilan cheklanmaganini ta'kidladi. Davlatimiz rahbari tashrifining ko'p qirrali dasturi muloqotni har tomonlama rivojlantirishga o'zaro intilish mavjud ekanining yorqin tasdig'idir.

- O'zbekiston iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda katta yutuqlarga erishdi, avtomobilsozlik, neft va gaz kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish kabi yangi tarmoqlar tashkil etildi. Belarus qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali O'zbekiston bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga tayyor, - dedi Aleksandr Lukashenko.



Belarus uzoq muddatli hamkorlik dasturini amalga oshirish, qo'shma korxonalar va servis markazlarini tashkil etish, sutni qayta ishlash zamonaviy majmualari, farmatsevtika quvvatlarini ishga tushirish, axborot texnologiyalari sohasida sheriklikni mustahkamlashdan manfaatdor ekani qayd etildi.

Tomonlar ikki mamlakatning yirik sanoat korxonalarida o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish muhimligini ta'kidlashdi. Tajriba va texnologiyalar almashish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular bilan ham ichki, ham uchinchi davlatlar bozorini ta'minlash istiqbollari muhokama qilindi. Qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, to'qimachilik, charm-teri va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va boshqa istiqbolli yo'nalishlarda kooperatsiyani kuchaytirish ham ustuvor ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.



Shavkat Mirziyoyev i Aleksandr Lukashenko ikki mamlakat hududlarida mavjud salohiyatni to'la yuzaga chiqarish muhimligini ta'kidladilar. O'zbekiston Prezidentining tashrifi arafasida Minskda o'tgan forumda tomonlarning hamkorlikka intilishi qat'iyligi, o'zaro manfaatli loyihalar ko'pligi namoyon bo'ldi.

Ilm-fan, raqamli texnologiyalar, ta'lim, madaniyat, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham kelishuvlarga erishildi.

Muzokaralar yakunida qabul qilingan qarorlar va imzolangan bitimlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olindi..

Manba